Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 378
PEDAGOGIKA

NOFILOLOGIK YO'NALISH TALABALARIGA GENERATIV SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI PSIXOLOGIYA YO'NALISHI MISOLIDA INGLIZ TILINI O'QITISH JARAYONIGA INTEGRATSIYA QILISHGA YO'NALTIRILGAN PEDAGOGIK-METODIK TIZIM

Nozimaxon Ulug'bek qizi Nigmatova*
Farg'ona davlat universiteti
✉ nigmatovanozimaxon@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada generativ sun'iy intellekt texnologiyalarini oliy ta'lim muassasalarida psixologiya yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'qitish jarayoniga integratsiya qilishga yo'naltirilgan pedagogik-metodik tizimning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda generativ sun'iy intellekt vositalarining didaktik imkoniyatlari, ularning til kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni hamda o'quv jarayonini individuallashtirish va adaptivlashtirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogik-metodik tizimning maqsad, mazmun, shakl, metod va natijaviy komponentlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar

nofilologik yo'nalish, generativ sun'iy intellekt, ingliz tilini o'qitish, oliy ta'lim, pedagogik-metodik tizim, raqamli pedagogika, kompetensiyaviy yondashuv, psixologiya yo'nalishi.

DOI: 10.5281/zenodo.21743052

KIRISH

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy ta'lim tizimining mazmuni va tashkil etilishiga tubdan ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, psixologiya yo'nalishi talabalariga sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalarning ta'lim jarayoniga kirib kelishi o'qitishning an'anaviy yondashuvlarini qayta ko'rib chiqish, ularni innovatsion pedagogik yechimlar bilan boyitishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda generativ sun'iy intellekt texnologiyalari nafaqat axborotlarni qayta ishlash vositasi, balki ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida namoyon bo'lib, o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Psixologiya yo'nalish talabalarida ingliz tilini o'qitish jarayonida generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki chet tilini egallash jarayoni psixologiya yo'nalishi talabalariga kommunikativ faollik, muntazam mashq, refleksiya va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.[1,B.134] Mazkur texnologiyalar esa talabalarning o'quv ehtiyojlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda adaptiv o'qitish muhitini yaratish imkonini beradi. Tadqiqotchilarning fikricha, sun'iy intellekt asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda ularning o'quv motivatsiyasini kuchaytiradi. Shu bois, generativ sun'iy intellekt texnologiyalarini ingliz tilini o'qitish jarayoniga tizimli va ilmiy asoslangan holda integratsiya qilishga yo'naltirilgan pedagogik-metodik tizimni ishlab chiqish oliy ta'lim oldida turgan dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi generativ sun'iy intellekt texnologiyalarini oliy ta'limda ingliz tilini o'qitish jarayoniga integratsiya qilishga qaratilgan pedagogik-

metodik tizimni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash hamda uning samarali faoliyatini ta’minlovchi tarkibiy komponentlarini aniqlashdan iborat.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda psixologiya yo‘nalishi talabalariga generativ sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quv jarayonini individuallashtirish va adaptivlashtirishning samarali vositasi sifatida talqin etilmoqda. Mazkur texnologiyalar yordamida o‘quv topshiriqlarini avtomatik generatsiya qilish, til materiallarini murakkablik darajasiga ko‘ra moslashtirish, shuningdek, psixologiya yo‘nalishi talabalari faoliyatini tezkor tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, sun’iy intellekt asosida yaratilgan o‘quv muhitlari talabalarning o‘qish, yozish, tinglab tushunish va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.[2,B.67] Bunda o‘quv jarayoni talabaning individual xususiyatlari, bilim darajasi va o‘quv sur’atiga mos ravishda tashkil etiladi. Natijada ta’lim jarayonida subyekt-subyekt munosabatlari mustahkamlanib, talaba ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Zamonaviy pedagogik izlanishlarda sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish masalasi keng ko‘lamda tahlil qilinmoqda. Ayniqsa, generativ sun’iy intellekt yechimlari ta’limni shaxsga yo‘naltirish, adaptiv o‘qitish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish hamda o‘quv faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim didaktik resurs sifatida talqin etilmoqda.

Xorijiy tadqiqotchilardan John Hattie [3,B.87]. ta’lim samaradorligi bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar, jumladan, sun’iy intellektka asoslangan vositalar o‘quv jarayonida tezkor va mazmunli teskari aloqani ta’minlashi orqali talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini asoslab beradi. Uning ta’kidlashicha, adaptiv raqamli tizimlar o‘qitish jarayonini talabaning individual ehtiyojlari va tayyorgarlik darajasiga moslashtirish imkonini yaratadi.

Chet tillarini o‘qitish metodikasiga oid tadqiqotlarda Mark Warschauer va Deborah Healey raqamli hamda sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘rni va ahamiyatini ilmiy asoslab bergan. Ularning fikricha, bunday texnologiyalar til o‘rganish jarayonida autentik kommunikativ muhitni modellashtirish, talabalarning nutqiy faolligini oshirish va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan mashqlar psixologiya yo‘nalishi talabalarining til faoliyatini doimiy monitoring qilish hamda individual tavsiyalar berish imkoniyatini ta’minlaydi.

Sun’iy intellekt va ta’lim integratsiyasi muammosini tizimli o‘rgangan olimlardan Rose Luckin [4,B.95] generativ sun’iy intellekt texnologiyalarini “intellektual o‘quv hamrohi” sifatida talqin qiladi. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, mazkur texnologiyalar psixologiya yo‘nalishi talabalarining mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, reflektiv fikrlashni faollashtiradi hamda o‘quv jarayonida metakognitiv faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydi.

Rossiya Federatsiyasi ilmiy-pedagogik maktablarida ham sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimidagi o‘rni keng tadqiq etilmoqda. Jumladan, E. S. Polat masofaviy va raqamli ta’lim nazariyasini rivojlantirish jarayonida axborot texnologiyalarining shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishdagi muhim didaktik imkoniyatlarini alohida ta’kidlaydi. Olimning qarashlariga ko‘ra, sun’iy intellektka asoslangan ta’lim muhiti psixologiya yo‘nalishi talabalarining bilish faolligini kuchaytiruvchi pedagogik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik texnologiyalar nazariyasi doirasida V. P. Bespalkoning [5,B.74] ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. U innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etishda texnologik yondashuvning ustuvorligini asoslab, har qanday yangi vosita aniq belgilangan maqsad, mazmun va kutilayotgan natijalar bilan uzviy bog‘langan taqdirdagina samarali bo‘lishini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv generativ sun’iy intellekt texnologiyalarini metodik tizim asosida tatbiq etish zarurligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda ham raqamli pedagogika va innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish masalasi dolzarb yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda.O‘zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan izlanishlarda raqamli ta’lim muhiti talabalarning kompetensiyaviy rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil sifatida baholanadi. Ularning xulosalariga ko‘ra, generativ sun’iy intellekt texnologiyalarini ingliz tilini o‘qitish jarayoniga joriy etish ta’limni individuallashtirish, mustaqil ta’lim ulushini oshirish hamda o‘quv jarayoni natijadorligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Mazkur ilmiy qarashlarning umumlashtirilgan tahlili shuni

ko‘rsatadiki, generativ sun’iy intellekt texnologiyalarini oliy ta’limda ingliz tilini o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish pedagogik-metodik tizimning ilmiy-nazariy poydevorini mustahkamlaydi hamda uning amaliy samaradorligini oshirish uchun zarur metodik asoslarni yaratadi.

Generativ sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan pedagogik-metodik tizim o‘zaro uzviy bog‘langan quyidagi komponentlardan iborat bo‘ladi:

Maqsadli komponent – psixologiya yo‘nalishi talabalarida ingliz tiliga oid kommunikativ, lingvistik hamda sotsiokultural kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategik maqsad va vazifalar majmuasi;

Mazmuniy komponent – ingliz tilini o‘rganishga mo‘ljallangan o‘quv materiallari, raqamli platformalar, sun’iy intellekt asosida yaratilgan mashqlar va topshiriqlar tizimi;

Jarayoniy komponent – interaktiv va innovatsion metodlar, adaptiv o‘qitish texnologiyalari, mustaqil va hamkorlikdagi ta’lim shakllarini o‘z ichiga olgan o‘quv jarayoni;

Natijaviy komponent – talabalarning ingliz tili bo‘yicha kompetensiyalarining rivojlanish darajasi, o‘quv natijalari va reflektiv faoliyat ko‘rsatkichlari.

Mazkur pedagogik-metodik tizimning samarali amalga oshirilishi bir qator muhim pedagogik shart-sharoitlarning mavjudligini talab etadi. Jumladan:

o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi hamda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha metodik kompetensiyalarini rivojlantirish;

generativ sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishga oid ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish;

ta’lim jarayonida akademik halollik, axloqiy va etik me’yorlarga qat’iy rioya etish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, generativ sun’iy intellekt texnologiyalarini oliy ta’limda nofilologik yo‘nalish talabalarida ingliz tilini o‘qitish jarayoniga integratsiya qilishga yo‘naltirilgan pedagogik-metodik tizim ta’lim jarayonini zamonaviylashtirish, talabalarning til kompetensiyalarini izchil va samarali rivojlantirish hamda o‘qitish jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Ushbu tizimni amaliyotga joriy etish oliy ta’lim muassasalaridagi psixologiya yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitish sifatini oshirishga, shuningdek, raqamli pedagogikaning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009. – 378 p. (pp. 173–186).
2. Warschauer M., Healey D. Computers and language learning: An overview // Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – Vol. 31, No. 2. – P. 57–71.
3. Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. – London: UCL Institute of Education Press, 2018. – 188 p. (pp. 102–118).
4. Polat E. S. Novye pedagogicheskie i informatsionnye tekhnologii v sisteme obrazovaniya. – Moskva: Akademiya, 2016. – 272 s. (s. 134–156).
5. Bespalko V. P. Sostavlyayushchie pedagogicheskoy tekhnologii. – Moskva: Pedagogika, 2008. – 192 s. (s. 64–83).